

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrası professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlát Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

### Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"  
jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....                                                       | 6   |
| <b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor                                                                                                        |     |
| O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....                                                                        | 11  |
| <b>Jumayev Olimjon Sadulloevich</b> , tadqiqotchi                                                                                                    |     |
| "Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....                                                                                           | 18  |
| <b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant                                                                                           |     |
| Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....                                   | 24  |
| <b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD                                                                                                    |     |
| O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....                                             | 27  |
| <b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD                                                                                                        |     |
| Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....                                                                                             | 34  |
| <b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent                                                                                             |     |
| Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....                                                                                | 39  |
| <b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi                                                                                         |     |
| Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....                                                                       | 44  |
| <b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi                                                                                 |     |
| Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....                                      | 50  |
| <b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant                                                                                            |     |
| Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....                                                              | 56  |
| <b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi                                                                                   |     |
| Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....                                                                            | 61  |
| <b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi                                                                                           |     |
| Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....                                                       | 65  |
| <b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant                                                                                                      |     |
| Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....                                                                                   | 71  |
| <b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)                                      |     |
| Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....                                                                     | 78  |
| <b>Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич</b> , независимый исследователь                                                                                     |     |
| Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....                                                                     | 83  |
| <b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант                                              |     |
| Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....                            | 89  |
| <b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi                                                                                                       |     |
| Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....                                                                                     | 94  |
| <b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi                                                                                         |     |
| Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....                                                                       | 99  |
| <b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi                                                   |     |
| "Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....    | 103 |
| <b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent                                                                 |     |
| Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi..... | 108 |
| <b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant                                                                                                 |     |
| Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....                                                                                | 114 |
| <b>Abdullayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi                                                                                            |     |
| Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....                      | 119 |
| <b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi                                                                                                                |     |
| Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....                                                                 | 125 |
| <b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;<br><b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher         |     |



|                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....              | 129 |
| <b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>                                                                          |     |
| Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....                                                  | 133 |
| <b>Mirziyo Sodikov Odiljon ogli</b>                                                                              |     |
| Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....              | 138 |
| <b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant</b>                                                             |     |
| Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish..... | 144 |
| <b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant</b>                                                     |     |
| Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....                                 | 151 |
| <b>Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi</b>                                                                |     |
| Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....                       | 156 |
| <b>Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант</b>                                                            |     |
| Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi .....                            | 161 |
| <b>Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi</b>                                                           |     |
| Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....                                 | 169 |
| <b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant</b>                                                               |     |
| Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....                               | 174 |
| <b>Жуманиязова Феруза, PhD, доцент</b>                                                                           |     |
| Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....                             | 179 |
| <b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD</b>                                                             |     |
| Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari .....                                         | 184 |
| <b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)</b>                                |     |
| Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....                             | 190 |
| <b>Nilufar Sharipova, PhD</b>                                                                                    |     |
| Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....                                    | 197 |
| <b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent</b>                                           |     |
| Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....                              | 201 |
| <b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant</b>                                                           |     |
| Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....                                                   | 208 |
| <b>Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD</b>                                                                |     |
| Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....                     | 212 |
| <b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь</b>                                                  |     |
| IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....                      | 216 |
| <b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD</b>                                                                     |     |
| Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....                                         | 222 |
| <b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi</b>                                           |     |
| Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari ..... | 227 |
| <b>Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi</b>                                                            |     |
| Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....                                 | 231 |
| <b>Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi</b>                                                        |     |
| Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....                                         | 238 |
| <b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD</b>                                                                  |     |
| Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....                   | 243 |
| <b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант</b>                                                              |     |
| Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish .....        | 249 |
| <b>Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD</b>                                                                  |     |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....        | 254 |
| <b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant</b>                   |     |
| Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....                    | 259 |
| <b>Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент</b>                                                           |     |
| Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....                  | 264 |
| <b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD</b>                                                                    |     |
| Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....                           | 268 |
| <b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)</b>                                        |     |



|                                                                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari .....                                           | 272 |
| <b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent                                                                            |     |
| Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея .....                                        | 277 |
| <b>Алимова София Розумбаевна</b> , независимый исследователь                                                                  |     |
| Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....                                 | 282 |
| <b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant                                                                  |     |
| Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....                                                      | 290 |
| <b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktorant                                                                                |     |
| Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....                                     | 293 |
| <b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD                                                                                     |     |
| Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....                                                    | 298 |
| <b>Shakarova Difuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant                                                                     |     |
| Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....                                                        | 304 |
| <b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , ассистент кафедры                                                                        |     |
| Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari .....                                            | 310 |
| <b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi                                                                                 |     |
| Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....                                                 | 315 |
| <b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant                                                                               |     |
| Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....                                              | 320 |
| <b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganov Zakir Gayibovich</b> , dotsent                               |     |
| Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari .....                         | 327 |
| <b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li</b> , magistrant                          |     |
| Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....                                    | 330 |
| <b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>                                                                                             |     |
| Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....                                | 335 |
| <b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.                                                                                  |     |
| Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba .....                                          | 341 |
| <b>N.N.Ro'ziyev</b>                                                                                                           |     |
| O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish..... | 350 |
| <b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi                                                                     |     |
| Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....                   | 356 |
| <b>Nosirova Charos</b>                                                                                                        |     |
| MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari .....                                                            | 364 |
| <b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant                                                                       |     |
| Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....                            | 369 |
| <b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi                                                                                     |     |
| Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....                                         | 374 |
| <b>Xatamov Nurbek Ochildivich</b> , erkin tadqiqotchi                                                                         |     |
| Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала .....                                  | 380 |
| <b>Дадаханова Саида Махаммаджон кизи</b> , докторант                                                                          |     |
| Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами .....                                               | 386 |
| <b>Хайдарова Малика Шакирджановна</b> , преподаватель кафедры                                                                 |     |
| Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....                                 | 396 |
| <b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD                                                                                                  |     |
| Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....                                                           | 403 |
| <b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi                                                                            |     |
| Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....        | 407 |
| <b>Nabiyev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi                                                                              |     |
| Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish .....                                                          | 412 |
| <b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD                                         |     |
| Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....                                                                      | 416 |
| <b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent                        |     |
| Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....                         | 421 |
| <b>M.A.Saparova</b> , talaba                                                                                                  |     |



# SANOAT KLASSTERLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Xakimov Ziyodulla Axmadovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Marketing kafedrası dotsenti

**Axmadova Rayxona Jasurbek qizi**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Marketing kafedrası tadqiqotchisi



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sanoat klasterlarini shakllanishi va rivojlanishning ilmiy-uslubiy asoslari o'rganilgan. Klasterlarni shakllantirish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tizimli tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar va mamlakatda amalga oshirilayotgan klasterlashtirish siyosatidan kelib chiqqan holda, to'qimachilik klasterlarini shakllantirish mexanizmi taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** klaster, sanoat klasterlari, to'qimachilik, tikuv-trikotaj, innovatsiya, aglomeratsiya, sinergiya, integratsiya.

**Аннотация:** В данной статье исследованы научно-методические основы формирования и развития промышленных кластеров. Системно проанализированы реализуемые в Узбекистане реформы по формированию кластеров. Предложен механизм формирования текстильных кластеров на основе международного опыта и реализуемой в стране кластерной политики.

**Ключевые слова:** кластер, промышленные кластеры, текстильная промышленность, швейно-трикотажное производство, инновации, агломерация, синергия, интеграция.

**Abstract:** In this article, the scientific and methodological foundations of the formation and development of industrial clusters are studied. The reforms implemented in Uzbekistan on the formation of clusters have been systematically analyzed. Based on the international experiences and the clustering policy implemented in the country, a mechanism for the formation of textile clusters is proposed.

**Key words:** cluster, industrial clusters, textile, sewing-knitting, innovation, agglomeration, synergy, integration.

O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning asosiy omili sanoat klasterlarini yaratish hisoblanadi. Ushbu omildan samarali foydalanish mamlakatda klaster tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash zaruriyatini yuzaga chiqaradi. Islohotlar jadallashib, jahon iqtisodiyotining globallashuvi kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatda qisqa muddatda klaster tizimini rivojlantirishning innovatsion yo'lga jadal o'tishni amalga oshirishi, iqtisodiyotning ushbu strategik ahamiyatga ega tarmog'ini zamon talablariga javob beradigan darajaga yetkazishi lozim. Aks holda klaster tizimi rivojlanishdan ortda qoladi va raqobatbardosh bo'la olmaydi. <sup>[1]</sup>

O'zbekiston Respublikasining innovatsion iqtisodiy rivojlanish sharoitida sanoatni rivojlantirishning klaster strategiyasini tashkil etish butun davlat mintaqaviy siyosatining eng muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi.

Sifatli tashkil etilgan klaster siyosati sanoat tarmoqlarining raqobatbardosh ustunliklarini oshirish, qulay investitsion iqlim yaratish va hududiy rivojlanishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekistonda klaster siyosatining sifatli amalga oshirilishi uchun yuqori ishlab chiqarish kuchlari va o'ziga xos qulay muhit bo'lishi talab etiladi. Har bir sanoat tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish va axborot resurslarining mavjudligi, muvozanatli logistika zanjirlari klasterlarni rivojlanishining asosiy omillari hisoblanadi. Klaster siyosatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u tovar va xizmatlar eksportiga qaratilgan va yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lgan korxonalarga asoslangan.

"Europe Innova" kompaniyasining mutaxassislari klaster siyosatini davlat siyosatining belgilangan chora-tadbirlari to'plami sifatida belgilaydilar, ular hozirgi to'plamlarni birlashtirishga yoki yangi klasterlar tuzishga ko'maklashishga qaratilgan. <sup>[2]</sup>

O'zbekistonda klasterlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar boshlanishi 2000-yillardan keyingi tadqiqotlarda o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan



2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va diversifikatsiya qilish yetakchi asosida tarmoqlarni mamlakat modernizatsiya iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish borasida barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar olib borish bilan boshlandi. Mazkur jarayonlar bilan bog‘liq texnopolis, texnopark, klaster kabi qator tushunchalar<sup>[3]</sup> iqtisodiyotda keng qo‘llanila boshlandi.

2017-yildan keyingi davrlarda O‘zbekistonda sanoat klasterlarini yaratishga jiddiy e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilk qarori to‘qimachilik sanoatida klaster tizimini yaratishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–2978-sonli qarori<sup>[4]</sup> qabul qilingan. Ushbu qaror bilan Buxoro viloyatida “VST cluster” MChJ QK o‘z faoliyatini boshlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15. 09. 2017-yildagi “Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3279-son qarori bilan Sirdaryo viloyatida “Bek cluster” MChJ QK tarkibiga:

- 1) Paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi tashkiloti;
- 2) Paxtani qayta ishlash tashkiloti;
- 3) Yog‘-moy mahsulotini ishlab chiqarish tashkiloti;
- 4) To‘qimachilik buyumlari ishlab chiqarish tashkiloti;
- 5) Sut, go‘sht va tuxum yetishtirish va qayta ishlash tashkiloti (chorvachilik va parrandachilik kompleksi);
- 6) Sabzavot va ko‘katlar yetishtirish tashkiloti (zamonaviy issiqxona kompleksi);
- 7) Qishloq xo‘jaligi mahsulotini saqlash va qayta ishlash tashkilotlari kiritilgan. Klaster tarkibida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun bir qator imtiyozlar joriy etilgan. <sup>[5]</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda qabul qilingan “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–5285-son Farmoni ijrosini ta‘minlash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan muhim qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan paxta-to‘qimachilik klasterlarini o‘rta muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqish taklifi ma‘qullandi. Qarorda e‘tirof etilgan asosiy masala respublika hududidagi paxta tozalash korxonalari va paxta tayyorlash punktlarini klasterlar tarkibiga qo‘shish, birlashtirib berish va bir qator imtiyozli shartlar asosida sotish bo‘yicha maxsus komissiya tarkibi shakllantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 01-dekabrda 974-son qarori bilan Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanida xorijiy investitsiyalar ishtirokida mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Tashkent Sotton Textile cluster” korxonasini ya‘ni “TST cluster” MChJ tashkil etildi.

Mamlakatda klaster tashabbuslari soni 2018-yildan keyingi davrlarda kengayib borib, sanoatning turli tarmoqlarini va barcha viloyatlar o‘zining klaster tashabbuslarini ilgari surdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 21-sentyabrda 752-son qarori bilan Andijon viloyatida meva-sabzavotchilik sohasiga klaster tizimini joriy qilish amaliyoti boshlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-yanvardagi 2-son qarori bilan Respublika hududlarida paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishi va klasterlariga berilgan-maydonlarda urug‘lik paxta xom ashyosi yetishtirishni moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizomda respublika hududlarida paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishi va klasterlariga berilgan-maydonlarda urug‘lik paxta xom ashyosi yetishtirishni moliyalashtirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, hosildorlik va urug‘lik paxta xom ashyosi sifatini oshirish, qishloq xo‘jaligi xodimlarini rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslar ajratish masalalari belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-iyulda 512-son qarorida esa zamonaviy urug‘chilik klasterlarini tashkil etishga qaratilgan.

Keyinchalik klasterlash amaliyoti iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida joriy etila boshlangan. Jumladan, agrosanoat klasterini tashkil etish, <sup>[6]</sup> go‘sht-sut mahsulotlari yetishtirish yo‘nalishidagi agrosanoat klasterini tashkil etish, <sup>[7]</sup> g‘allachilik klasterining faoliyatini tashkil etish, <sup>[8]</sup> farmatsevtika klasterini tashkil etish, <sup>[9]</sup> kartoshkachilik klasterini tashkil etish, <sup>[10]</sup> tibbiyot klasterini tashkil etish, <sup>[11]</sup> qishloq xo‘jaligi mashinasozlik klasterini tashkil qilish, <sup>[12]</sup> kimyoviy ilmiy-ishlab chiqarish va ta‘lim klasterini tashkil etish, <sup>[13]</sup> uzumchilikda rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish va h. k. <sup>[14]</sup>

Umuman olganda, 2017–2021-yillar davomida aynan klasterlar faoliyatini tashkil etish va uning infratuzilmasini yaratish, moddiy texnik bazasini kuchaytirishi, imtiyozlar taqdim etishga qaratilgan jami 50 dan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar mahkamasining farmon va qarorlari qabul qilindi. Shularning 10 dan ortig‘i aynan paxta va to‘qimachilik klasterlari faoliyati bilan bog‘liq.

Klasterlarni shakllantirish o‘ziga xos ilmiy, uslubiy va nazariy asoslarga qurilishi lozim. Har qanday klaster tashabbuslari ham o‘zini oqlamaydi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari shakllanganligiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da o‘zining bir qator ijobiy natijalarini bergan.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash quvvatlarini ko‘paytirish, ushbu jarayonga ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida



bartaraf etish, ularning manfaatlarini davlat hokimiyati boshqaruv organlarida himoya qilish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.06.2020-yildagi 397-son qarori bilan "O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasi ashkil etilgan.

Uyushma tuzilmasida tizimli muammolarni bartaraf etish, marketing innovatsiyalarini faol joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli va ustuvor yo'nalishlarini aniqlashni ta'minlovchi maslahat organi – Paxta-to'qimachilik klasterlari kengashi ham tuziladi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 27-oktyabr kuni qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida klasterlash asosida olingan asosiy iqtisodiy natijalar bayon etilgan.

Jumladan, qishloq xo'jaligida ham ulkan rejalar belgilangan. Kelgusi besh yilda hosildorlikni kamida 2 barobar ko'tarish, xom ashyoni chuqur qayta ishlash, soha eksportini 7 milliard dollarga yetkazish, aholi bandligi va daromadlarini yanada oshirish maqsad qilingan.

Bunda klasterlar asosiy tayanch va yetakchi bo'ladi. Bu tizim qisqa vaqtda katta o'zgarishlarga zamin yaratdi. Masalan, paxtachilikda tolani qayta ishlash 2,5 barobarga oshib, 100 foizga yetkazildi. Shuningdek, ip-kalava ishlab chiqarish 2 barobarga, tayyor mahsulot 3 barobarga ortdi, eksport yil yakuniga qadar 3 milliard dollarga etadi. Paxta xom ashyosidan tayyor mahsulotgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab olgan 2 milliard dollarlik 125 ta yangi korxona hamda 150 mingta doimiy ish o'rni tashkil qilindi. Klasterlar tomonidan 5 mingdan ortiq yuqori unumli texnikalar olib kelindi, 126 ming gektar-maydonda suv tejash texnologiyalari joriy qilindi. Innovatsion yondashuv natijasida hosildorlik ham oshib bormoqda. Ko'p klasterlar bu yil paxtadan 35–40 sentnergacha hosil olgan.

Umuman olganda respublikada to'qimachilik klasterlarini shakllantirishga qaratilgan yo'nalishlar va ushbu faoliyatni boshqarishni tashkil etishga yuqori ahamiyat qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazarda klasterlarni shakllantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash va to'qimachilik klasterlarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha 1-rasmda tavsiya etilgan yondashuv tavsiya etiladi.

Mazkur model respublikada to'qimachilik klasterlarini shakllantirishga qaratilgan yo'nalishlar va ushbu faoliyatni boshqarishni tashkil etishga yuqori ahamiyat qaratilishi lozimligini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, klasterlarni shakllantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash va shakllantirishning mazkur metodologik yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.



1-rasm: To'qimachilik klasterlarini shakllantirish mexanizmi<sup>1</sup>

1 Muallif ishlanmasi



To'qimachilik klasterlarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirishda avvalo klasterlarni shakllanish qonuniyatlarini o'rganish talab etiladi. Mazkur yo'nalishda xalqaro amaliyotda tan olingan va o'z samarasi bergan yondashuvlarni o'rganish va klasterlar faoliyatini istiqbolda kutiladigan natijalar tadqiq etilishi lozim. Mazkur tadqiqot yo'nalishi O'zbekistonda to'qimachilik klasterlarini shakllanish jarayonlaridagi to'siqlarni aniqlash va ularni bosqichma bosqich hal etish borasida tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Keyingi yo'nalish klasterlarni shakllanishiga asos bo'luvchi omillarni tizimlashtirish talab etiladi. To'qimachilik sanoatida klasterlarni shakllanishi va kuchli klasterlarga aylanishi bo'yicha aniq ilmiy asoslangan yo'nalishlarni belgilab olish muhim yo'nalishlardan biridir.

Keyingi asosiy yo'nalish shakllanadigan to'qimachilik klasterlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashni nazarda tutadi. Olib borilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki, to'qimachilik klasterlarining iqtisodiy samaradorligi nafaqat tarmoq uchun, balki barcha sanoat uchun samara keltirishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra, to'qimachilik klasterlarining sinergiya samarasini aniqlashning o'ziga xos bo'lgan yo'nalishlari va baholash usullarini ishlab chiqish asosiy yo'nalish sifatida belgilanishi lozim.

To'qimachilik klasterlarini shakllantirish va ularning faoliyatini samarali boshqarishga yo'naltirilgan faoliyat doirasida to'qimachilik sanoatining resurs imkoniyatlari, davlatning qonunchilik asoslari, investitsion faoliyati, innovatsiya va axborotlashtirish jarayonlari, inson kapitali va shakllanishga xizmat qiluvchi institutsional asoslar o'rganilishi talab etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Klaster xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning asosiy yo'nalishlari". Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami (2020-yil 10-noyabr). – T.: TDIU, 2020. – 4 b.
2. Международные стандарты. Руководство Осло. Рекомендации по анализу и сбору данных по инновациям [Текст]. – М.: ЦИХ, 2016. – 192 с.
3. Raximov F. Usmonov B. Kushiyeu X. Klaster nazariyasi va unga amaliy yondashuvlar. <http://mineconomy.uz/uploads/%D0%9A%D0%9B%D0%90%D0%A1%D0%A2%D0%95%D0%A0%202020.pdf>
4. Postanovlenie Prezidenta Respubliki Uzbekistan, ot 19. 05. 2017 g. № PP–2978. <https://lex.uz/docs/4923852>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15. 09. 2017-yildagi PQ–3279-son. <https://lex.uz/docs/3352683>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18. 06. 2019-yildagi 511-son "Sirdaryo viloyatida agrosanoat klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05. 09. 2019-yildagi 736-son "Namangan viloyatining mingbuloq va pop tumanlarida agrosanoat klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori,
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.07.2019-yildagi 619-son "Jizzax viloyatida go'sht-sut mahsulotlari yetishtirish yo'nalishidagi agrosanoat klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24. 09. 2019-yildagi 806-son "Boshqoli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28. 01. 2020-yildagi PQ–4574-son "TASHKENT PHARMA PARK" innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasterini tashkil etish to'g'risida"gi qarori;
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01. 04. 2020-yildagi 193-son "Toshkent viloyatida zamonaviy kartoshkachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20. 05. 2021-yildagi 318-son "Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishning yangi modeli – guliston tibbiyot klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11. 11. 2021-yildagi PQ–7-son "Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozlik klasterini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15. 12. 2021-yildagi 753-son "Kimyo sanoati uchun innovatsion kimyoviy ilmiy-ishlab chiqarish va ta'lim klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2021-yildagi PQ–5200-son "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

